

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**  
**“GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR MA’NAVIYATI”**  
**RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI ILMIY VA ILMIY – TEXNIKAVIY**  
**ANJUMANI MATERIALLARI**

**(2 - to‘plam)**

**2026-yil 21-22 may**



**Farg‘ona - 2026**

**“Globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviyati”** mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami.

2026-yil 21-22 may kunlari Farg‘ona davlat texnika universitetida **“Globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviyati”** mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman bo‘lib o‘tdi.

Ushbu to‘plamda xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari o‘rin olgan. To‘plamda oliy va o‘rta ta’lim muassasalari, ilmiy tekshirish institutlari, Jadidlarning ilmiy-pedagogik merosini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy izlanish natijalari keltirilgan.

#### **Konferensiyaning tashkiliy qo‘mitasi:**

Tojiyev R.R. – tashkiliy qo‘mita raisi, Farg‘ona davlat texnika universiteti rektori, texnika fanlari doktori, professor;

Davlyatov Sh.M. – FDTU tashkiliy qo‘mita raisi o‘rinbosari, II va IB prorektori, t.f.f.d., (PhD);

Jaxongirov I.J. – FDTU O‘IB prorektori, iqtisod fanlari doktori (DSc), dotsent;

Salimov A.A. – FDTU MIIB prorektori, i.f.f.d. (PhD);

Dexqonov Sh. - FDTU YMMMIB 1-prorektor, i.f.f.d. (PhD);

Igamberdiyev B.G. – FDTU IPKT bo‘limi boshlig‘i, t.f.f.d. (PhD), dotsent.

Abduxalilov B. K. – FDTU Yengil sanoat texnologiyalari fakulteti dekani, t.f.f.d, (PhD).

Nuriddinov M. – FDTU hodimlar kasaba uyushmasi qo‘mitasi raisi.

Kamilov A.A. – FDTU “Ijtimoiy fanlar va sport” kafedrasida mudiri, t.f.n.;

Obidova G. – FDTU “Tillarni o‘rgatish” kafedrasida mudiri, f.f.d.;

Tuxtarov I. M. – FDTU “Ijtimoiy fanlar va sport” kafedrasida dotsenti, f.f.n.;

Kochkorova G.D. - FDTU “Ijtimoiy fanlar va sport” kafedrasida dotsenti, f.f.n.;

Rustamov I.A. - FDTU “Ijtimoiy fanlar va sport” kafedrasida dotsenti, f.f.n.;

Tishabayeva I. - FDTU “Ijtimoiy fanlar va sport” kafedrasida dotsenti, t.f.n.;

Xonqulov Sh.X. - FDTU “Ijtimoiy fanlar va sport” kafedrasida katta o‘qituvchisi, t.f.f.d. (PhD);

Abdurahmonov G‘.Z. - FDTU “Ijtimoiy fanlar va sport” kafedrasida katta o‘qituvchisi, f.f.f.d. (PhD);

Abduxamidov I.A. - FDTU “Ijtimoiy fanlar va sport” kafedrasida katta o‘qituvchisi, f.f.f.d. (PhD);

### **Konferensiyaning tashkiliy qo‘mitasi:**

Farxodjonova N. - FDTU “Ijtimoiy fanlar va sport” kafedrası katta o‘qituvchisi, f.f.f.d. (PhD);

Mirzayev A.A. - FDTU “Ijtimoiy fanlar va sport” kafedrası katta o‘qituvchisi, f.f.f.d. (PhD);

Raximov I.A. - FDTU “Ijtimoiy fanlar va sport” kafedrası katta o‘qituvchisi, s.f.f.d. (PhD);

Sodiqov S. - FDTU “Ijtimoiy fanlar va sport” kafedrası katta o‘qituvchisi, f.f.f.d. (PhD);

Boykuziyava R.K. - FDTU “Ijtimoiy fanlar va sport” kafedrası assistenti,

Maxmudova A.N. - FDTU “Ijtimoiy fanlar va sport” kafedrası assistenti, t.f.f.d. (PhD);

Umrzaqov A. - FDTU “Ijtimoiy fanlar va sport” kafedrası assistenti, f.f.f.d. (PhD);

Abdugapparov A.M. - FDTU “Ijtimoiy fanlar va sport” kafedrası katta o‘qituvchisi;

Ergashov U. O. - FDTU “Ijtimoiy fanlar va sport” kafedrası katta o‘qituvchisi;

Kadirova D. - FDTU “Ijtimoiy fanlar va sport” kafedrası katta o‘qituvchisi;

Otaxonova Z. - FDTU “Ijtimoiy fanlar va sport” kafedrası katta o‘qituvchisi;

Tishabayeva L.A. - FDTU “Ijtimoiy fanlar va sport” kafedrası katta o‘qituvchisi;

Urinbayeva M.S. - FDTU “Ijtimoiy fanlar va sport” kafedrası katta o‘qituvchisi;

**Mazkur to‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuniga hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning o‘zlari shaxsan mas‘uldirlar.**

9. Oydinov Norsaid. *O'zbekistan tasviriy san'ati tarixidan lavhalar: o'rta maxsus maktablarning o'qituvchilari va maxsus bilim yurtning talabalari uchun o'quv qo'llanma.* — T.: O'qituvchi, 1997.

10. Madina Botirjonova. *San'at va tabiat uyg'unligi.* <https://yuz.uz/oz/news/sanat-va-tabiat-uygunligi>.

11. <https://www.google.com/search>.

## **RAQAMLI AVLOD (GENERATION ALPHA VA Z) PSIXOLOGIYASI VA VOYAGA YETMAGANLAR O'RTASIDA KIBERPROFILAKTIKA TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: INTEGRATSION YONDASHUV**

**Shavkatov Shaxboz Shavkatovich**

**O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya ilmiy tadqiqot instituti**

**ilmiy xodim-tadqiqotchi**

**E-mail: shavkatovshaxboz910@gmail.com**

Insoniyat sivilizatsiyasi tarixida birinchi marta voyaga yetmaganlar avlodi — "Digital Natives" (Raqamli aboriginlar) jismoniy va virtual borliqning uzviy sintezida kamol topmoqda. Bugungi kunda internet va smartfonlar shunchaki aloqa vositasi emas, balki o'smirlarning kognitiv rivojlanishi, neyrofiziologik jarayonlari va ijtimoiy xulq-atvorini shakllantiruvchi asosiy ekotizimga aylandi [1]. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Generation Alpha vakillari kunlik vaqtining 40 foizidan ortig'ini ekran qarshisida o'tkazadi, bu esa ularning axborotni qabul qilish uslubini chiziqli (kitobiy) shakldan vertikal-vizual (klipcha) shaklga o'zgartirdi [8]. Ushbu transformatsiya jarayonida ijtimoiy tarmoq algoritmlari tomonidan sun'iy ravishda stimulyatsiya qilinadigan dofaminergiya (mukofot tizimi) va FOMO (muhim voqeadan qolib ketish qo'rquvi) sindromi o'smirlarda kognitiv zaiflik va impulsivlikni keltirib chiqarmoqda [3]. ynan ushbu zaifliklar kiber-deviansiya — kiberbulling, raqamli shantaj va onlayn radikalizatsiya kabi kriminogen xavf-xatarlar uchun qulay zamin yaratadi. Hozirgi kunda profilaktika inspektori va psixologlar oldida turgan asosiy vazifa faqat huquqbuzarlik oqibatlarini bilan kurashish emas, balki neyrobiologik va psixologik omillarni hisobga olgan holda kiber-xavfsizlikning integratsiyalashgan tizimini yaratishdir. Mazkur tadqiqotda raqamli avlodning psixofiziologik portretini tahlil qilish orqali, voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olishning konseptual yangi modellari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning nazariy asosini M. Prenskyning "Digital Natives", J. Twengenning "iGen" tadqiqotlari hamda G. Smallning raqamli miya neyrobiologiyasi bo'yicha ishlari tashkil etadi. Metodologiya sifatida tizimli tahlil, kiber-muhitni OSINT-monitoring qilish va xalqaro "Safety-by-Design" modellarini qiyosiy o'rganish usullaridan foydalanildi [9]. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi [7] va "Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi [10] qonunlari tahlil qilindi.

### **3.1. Raqamli avlodning neyropsixologik portreti**

Bugungi o'smirlarda axborotni qisqa va vizual bo'laklarda qabul qilishga asoslangan "klipcha fikrlash" (Clip Thinking) shakllangan [1]. Ijtimoiy tarmoqlardagi doimiy bildirishnomalar miyaning mukofotlash tizimini surunkali qo'zg'atib, "dofamin tuzog'i" va FOMO sindromini (muhim voqeadan qolib ketish qo'rquvi)

shakllantiradi. Bu neyrofiziologik holat o'smirda real hayotdagi oddiy yutuqlardan olinadigan lazzatni so'ndirib (anhedoniya), virtual olamga kuchli impulsiv qaramlikni keltirib chiqaradi [3]. Shu o'rinda, voyaga yetmaganlarning raqamli muhitdagi xulq-atvorini tushunish uchun ularning miya tuzilishidagi o'ziga xos "biologik nomutanosiblik" (Neurobiological Imbalance) hodisasiga to'xtalib o'tish joiz. Neyrobiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'smirlilik davrida hissiyotlar, qo'rquv va birlamchi impulslar uchun javobgar bo'lgan amigdala (bodomsimon tana) tizimi to'liq shakllangan va o'ta faol bo'ladi. Biroq, mantiqiy fikrlash, oqibatlarni tahlil qilish va impulsni jilovlash markazi hisoblangan prefrontal po'stloq (Prefrontal Cortex) 21-25 yoshgacha to'liq yetilmaydi [3, 11]. Bu holat voyaga yetmaganlar psixikasida o'ziga xos "biologik bo'shliq"ni yuzaga keltiradi: o'smir virtual olamdagi xavfni (masalan, kiber-shantaj yoki onlayn qimor xavfini) kognitiv darajada tushunsa-da, yetilmagan prefrontal po'stloq tufayli kuchli emotsional impulsni to'xtata olmaydi. Kiber-jinoyatchilar va destruktiv guruhlar "ijtimoiy muhandislik" metodlari orqali aynan mana shu zaif nuqtaga — o'smirning hissiyotlarga tez beriluvchanligi va o'zini boshqarish tizimi sustligiga hujum qiladi. Natijada, raqamli muhitdagi doimiy "dofaminergiya" va FOMO sindromi ushbu nomutanosiblikni yanada chuqurlashtirib, o'smirda impulsiv kiber-deviant xulq-atvorning shakllanishiga zamin yaratadi.

### 3.2. Kiber-deviansiya transformatsiyasi

Kiber-deviansiya bugungi kunda kiberbulling (raqamli tazyiq) [4], kiber-shantaj (sextortion) va ludomaniya (onlayn qimor) shaklida ommalashmoqda. Ayniqsa, onlayn kazinolar o'smir miyasidagi dopamin tizimini tez ishdan chiqarib, ularni moliyaviy jinoyatlar (scamming) va pul yuvish (money muling) sxemalariga osongina jalb qilmoqda. Destruktiv guruhlar esa "Ijtimoiy muhandislik" (Social Engineering) metodlaridan foydalanib, bolaning ishonchiga kirish va uni real ijtimoiy muhitdan izolyatsiya qilish amaliyotini qo'llamoqda. Kiber-deviansiyaning kengayishiga xizmat qiluvchi yana bir fundamental kriminogen omil — bu "Onlayn g'ayriinsoniy munosabat effekti" (Online Disinhibition Effect) hisoblanadi. Raqamli makondagi anonimlik va jabrlanuvchi bilan yuzma-yuz muloqotning yo'qligi o'smirda "jazo muqarrarliligi" hissini so'ndiradi hamda axloqiy tormozlanishni zaiflashtiradi. Natijada, real hayotda qonunbuzarlikka moyil bo'lmagan "namunali" o'smir virtual olamda anonimlik niqobi ostida kutilmaganda shafqatsiz kiber-bullerga yoki xakerlik hujumlari (masalan, DDoS hujumlar) ishtirokchisiga aylanib qolishi mumkin. Bu jarayon kiber-muhitda shaxsning axloqiy "desensibilizatsiyasi" (hissizlashuvi) ga olib keladi. Shu bilan birga, zamonaviy kiber-deviansiyaning eng xavfli transformatsiyalaridan biri — ludomaniya (onlayn qimor qaramligi) hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'smirlarni onlayn kazinolarga jalb qilishda videoo'yinlardagi "Loot box" (tasodifiy yutuq qutilari) mexanizmi "tramplin" vazifasini bajarmoqda [12]. O'yin ichidagi ushbu yashirin yutuqlar mexanikasi qimor o'yinlari algoritmi bilan aynan bir xil bo'lib, o'smir miyasini kichik yoshdanoq "tavakkalchilik orqali rohatlanish"ga o'rgatadi. Bu esa keyinchalik ularni onlayn kazinolarga, moliyaviy piramidalariga va hatto mablag' topish maqsadida og'ir moliyaviy jinoyatlarga (scamming, money muling) osongina kirib ketishiga sabab bo'lmoqda.

<b>Kiber-xavf turi</b>	<b>Neyropsixologik sabab</b>	<b>Kriminogen oqibat</b>
<b>Kiberbulling</b>	Empatiyaning pasayishi (ekran to‘sig‘i)	O‘z joniga qasd qilish, revanshizm
<b>Ludomaniya</b>	Dofamin defitsiti (tezkor rohatlanish)	O‘g‘irlik, firibgarlik (scamming)
<b>Radikalizatsiya</b>	"Echo Chamber" (bir tomonlama axborot)	Ekstremistik harakatlarga jalb qilinish

Tadqiqotning kriminologik tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli makonda "Viktimalik" (jabrlanuvchi bo‘lish moyilligi) tushunchasi transformatsiyaga uchrab, "Kiber-jabrlanuvchi — Kiber-huquqbuzar" (Victim-Offender Overlap) o‘zgaruvchanligini yuzaga keltirmoqda. An’anaviy jinoyatchilikdan farqli o‘laroq, kiber-muhitda jabrlanuvchi va huquqbuzar rollari tez almashinuvchan xarakterga ega [4]. Xususan, kiberbulling yoki raqamli tazyiq qurboni bo‘lgan o‘smir, ko‘p hollarda o‘zini himoya qilish, qasos olish yoki virtual jamiyatda o‘z mavqegini qayta tiklash maqsadida kiber-huquqbuzarga aylanadi. Bu jarayon raqamli makonda "yopiq kriminogen halqa"ni hosil qiladi: jabrlanuvchi o‘ziga yetkazilgan psixologik zararni boshqa bir zaifroq foydalanuvchiga yo‘naltiradi (masalan, akkauntini buzib kirish, shaxsiy ma‘lumotlarini tarqatish). Natijada, raqamli deviansiya "zanjirli reaksiya" ko‘rinishida kengayib boradi. Ushbu "viktimal-ogressiv" model profilaktika tizimida nafaqat huquqbuzarlar bilan, balki jabrlangan o‘smirlarning reabilitatsiyasi bilan ham tizimli shug‘ullanish zarurligini ilmiy asoslab beradi.

### 3.3. Xalqaro tajriba va raqamli filtrlar

Kiber-xavflarga qarshi kurashishda Buyuk Britaniyaning “Online Safety Act” [13] (platformalar mas’uliyati), Avstraliyaning “eSafety Commissioner” [9] (raqamli inspektor) va Xitoyning "Anti-Addiction System" modellari yuksak samaradorlik ko‘rsatmoqda. Ushbu modellar o‘smirlar uchun virtual vaqt cheklavlari, raqamli filtrlar va kontent provayderlarining voyaga yetmaganlar oldidagi huquqiy majburiyatlarini qat’iy belgilab beradi [9,13]. Ushbu davlatlarning tajribasida markaziy o‘rinni “Safety-by-Design” (Xavfsizlik loyihalashtirish bosqichida) tamoyili egallaydi. Mazkur yondashuv raqamli platformalardan xavfsizlik choralari foydalanuvchi muammoga duch kelganidan keyin emas, balki mahsulotni yaratish jarayonida joriy etishni talab qiladi. Uning ishlash mexanizmi quyidagi ikki ustuvor yo‘nalishga asoslanadi:

1. Algoritmik mas’uliyat (Algorithmic Accountability): Platformalar voyaga yetmaganlar uchun mo‘ljallangan kontent oqimida destruktiv g‘oyalar, kiberbulling yoki zararli trendlarni “tavsiya etuvchi” algoritmlarni cheklashi shart. Masalan, Buyuk Britaniya tajribasiga ko‘ra, ijtimoiy tarmoqlar o‘smirning psixofiziologik

holatiga salbiy ta'sir etuvchi kontentlarni avtomatik tavsiya etishni to'xtatishi va majburiy "Screen Time" (ekran vaqti) cheklovlarini o'rnatishi lozim. Bu o'smirning "dofamin tuzog'i"ga tushib qolishining oldini oladi.

2. Maxfiylikning birlamchi sozlamalari (Default-privacy): Mazkur mexanizmga ko'ra, voyaga yetmagan bola uchun ochilgan har qanday profil avtomatik ravishda (default holatda) "yopiq" (private) rejimda bo'lishi majburiydir. Bu begona shaxslarning bola bilan bevosita muloqotga kirishi, uning shaxsiy ma'lumotlarini ko'rishi yoki unga nisbatan "ijtimoiy muhandislik" metodlarini qo'llash imkoniyatini loyihalashtirish bosqichidayoq bartaraf etadi. Xulosa qilib aytganda, xalqaro amaliyotda kiberprofilaktika — bu faqat huquqiy jazo emas, balki platformalarning texnik arxitekturasini voyaga yetmaganlar manfaati uchun xizmat qildirishdir.

Raqamli profilaktika tizimini takomillashtirish maqsadida quyidagilar taklif etiladi:

1. OSINT-monitoring tizimini joriy etish: Inspektor-psixologlar tomonidan ochiq manbalar orqali kiber-skrining o'tkazish va o'smirlarning "raqamli izi"ni muntazam tahlil qilish mexanizmini yaratish [14].

2. Kiber-immunitet treninglari: Maktablarda o'quvchilar uchun S.A.F.E. (Stop, Analyze, Find, Exit) qoidasi asosida media-savodxonlik darslarini yo'lga qo'yish [6].

3. Raqamli shartnoma (Digital Contract): Ota-ona va bola o'rtasida gadjetlardan foydalanishning axloqiy va xavfsizlik qoidalarini belgilovchi psixologik shartnomalar amaliyotini ommalashtirish [5].

4. Kiberbulling uchun PFA protokoli: Kiber-tazyig'ga uchragan bolalar uchun maxsus "Birinchi psixologik yordam" (PFA) standartlarini amaliyotga tatbiq etish.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, voyaga yetmaganlar o'rtasidagi kiber-deviansiya — bu faqatgina ijtimoiy muammo emas, balki raqamli muhit va o'smir neyrofiziologiyasining murakkab to'qnashuvi natijasidir. "Klipcha fikrlash" va dofaminergiya kabi fenomenlar o'smirlarni virtual manipulyatsiyalar oldida himoyasiz qilib qo'yadi, bu esa an'anaviy profilaktika usullarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, raqamli profilaktika tizimi quyidagi uchta ustuvor yo'nalishga asoslanishi shart:

1. Neyropsixologik yondashuv: O'smirlarning miya faoliyati xususiyatlaridan kelib chiqib, ularda impulsivlikni jilovlovchi va tanqidiy fikrlashni (Media Literacy) o'stiruvchi dasturlarni joriy etish.

2. Texnologik himoya: Xalqaro tajribada o'zini oqlagan "Safety-by-Design" tamoyilini milliy qonunchilikka yanada chuqurroq integratsiya qilish va OSINT-monitoring mexanizmlari orqali xavflarni erta aniqlash.

3. Ijtimoiy ekotizim: Inspektor-psixologning rolini oddiy nazoratchidan "raqamli mentor" (Digital Mentor) darajasiga ko'tarish, ota-ona va bola o'rtasida ochiq muloqot hamda "raqamli gigiyena" madaniyatini shakllantirish.

Raqamli profilaktika — bu bolalarni internetdan ajratib qo'yish emas, balki ularga virtual dunyoda yashash, ishlash va xavfsiz harakatlanish uchun "kiber-immunitet" berish demakdir. Zero, raqamli xavfsizlik bugungi kun o'smiri uchun

fundamental huquq bo‘lib, u jamiyatning barqaror va xavfsiz kelajagini ta’minlovchi asosiy omildir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

1. Prensky, M. (2001). *Digital Natives, Digital Immigrants. On the Horizon.*
2. Twenge, J. M. (2017). *iGen: Why Today's Super-Connected Kids Are Growing Up Less Rebellious... Atria Books.*
3. Small, G., & Vorgan, G. (2008). *iBrain: Surviving the Technological Alteration of the Modern Mind. Collins.*
4. Hinduja, S., & Patchin, J. W. (2015). *Bullying Beyond the Schoolyard: Preventing and Responding to Cyberbullying. Corwin.*
5. World Health Organization (WHO). (2011). *Psychological First Aid: Guide for Field Workers..*
6. Hobbs, R. (2010). *Digital and Media Literacy: A Plan of Action. Aspen Institute.*
7. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. "Kiberxavfsizlik to‘g‘risida", 15.04.2022 yildagi O‘RQ-764-sonli.
8. UNICEF. (2017). *The State of the World’s Children: Children in a Digital World..*
9. eSafety Commissioner (Australia). (2021). *Safety-by-Design: Global Assessment and Guidelines..*
10. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. "Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida", 08.09.2017 y..
11. Kashibadze, A. G. (2020). *Psixologiya kiberprostranstva..*
12. Livingstone, S. (2016). *The Class: Living and Learning in the Digital Age. New York University Press.*
13. *Online Safety Act (UK). (2023). platform liability and child protection standards.*
14. Vafoyev, B. (2023). *Huquqbuzarliklar profilaktikasida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish.*

## **PSIXOLOGIK REZILYENTLIKNING RIVOJLANISH MEXANIZMLARI: BOLALIK VA O‘SMIRLIK DAVRI**

**Shavkatov Shaxboz Shavkatovich**

**O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya ilmiy tadqiqot instituti  
ilmiy xodim-tadqiqotchi**

**E-mail: shavkatovshaxboz910@gmail.com**

Zamonaviy rivojlanish psixologiyasi va psixopatologiyasining eng dolzarb muammolaridan biri — shaxsning og‘ir hayotiy vaziyatlar, distress va ijtimoiy-ekologik inqirozlarga (shu jumladan, migratsiya, ijtimoiy izolyatsiya va oilaviy transformatsiyalarga) samarali moslashish qobiliyatini tadqiq etishdir. Ushbu fenomen ilmiy adabiyotlarda "psixologik rezilyentlik" (psychological resilience) deb nomlanib, u shaxsning deterministik stressorlar ta’sirida o‘z ruhiy salomatligi va funktsionalligini saqlab qolish, hattoki inqirozdan so‘ng ijobiy o‘sishga (post-traumatic growth) erishish dinamikasini ifodalaydi [8, 28-b.].

Bolalik va o‘smirlik davrlari rezilyentlikning neyrobiologik va psixologik poydevori shakllanadigan eng kritik progressiv bosqichlar hisoblanadi [10, 548-b.]. Zero, aynan shu ontogenetik davrlarda bosh miya prefrontal qobig‘ining shakllanishi, emotsional regulatsiya tizimlarining mofizatsiyalashuvi va ijtimoiy kognitsiya tizimi tarkib topadi [7, 339-b.]. Ushbu maqolaning maqsadi — bolalik va o‘smirlik davrida